

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 4

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2024

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-4>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахыммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bepulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Pagemaker | Верстка | Сахифаловчи: Хўршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

MUNDARIJA | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Toshbekova Manzura Majit qizi METAPHORICAL COGNITIVE MODEL OF THE FORMATION OF FIGURATIVE MEANINGS.....	4
2. Zakirova Madina Damirovna MAIN TASKS OF COGNITIVE - PRAGMATIC STYLISTICS.....	11
3. Ходжиева Гульчехра Норовна АНАЛИЗ И СРАВНЕНИЯ ЯЗЫКОВЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ГЕНДЕРНОЙ КОММУНИКАЦИИ НА ПРИМЕРЕ ИТАЛЬЯНСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	16
4. Хулкар Ҳамроева, Озодахон Мусаева ҚОЗОҒИСТОНДА ЯШАБ ИЖОД ҚИЛАЁТГАН ЎЗБЕК ШОИРЛАРИ АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОПОЭТИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	20
5. Faleeva Anastasiya Vadimovna ENGLISH SPOKEN WORDS AND EXPRESSIONS IN THE PERSPECTIVE OF “DICTIONARY OF SLANG” IN A LEVEL VIEW.....	34
6. Tursunov Mirzo Maxmudovich, Tursunov Mirzo Makhmudovich, Турсунов Мирзо Махмудович MEDIAMATNNING LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK HAMDA MADANIYATLARARO MULOQOTDAGI O‘RNI TAHLILI.....	42
7. Toshtemirov Farhod ИНТЕРНЕТ МУЛОҚОТНИНГ НОВЕРБАЛ ВОСИТАЛАРИГА ДОИР.....	47



ISSN: 2181-9297
www.tadqiqot.uz

UDK. УЎК81'42:81'27:81'276.6] (=111=512.133)

Tursunov Mirzo Maxmudovich

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

mirzobek.tursunov81@gmail.com

BuxDU ingliz tilshunosligi kafedrasi mudiri, f.f.d.(DSc),

professor Z.I.Rasulov taqrizi asosida

Tursunov Mirzo Makhmudovich

Dotsent (PhD) in linguistics at Bukhara State University

mirzobek.tursunov81@gmail.com

Published due to the review given by Z.I.Rasulov,

associate professor in linguistics at Bukhara State

University, head of English linguistics department

Турсунов Мирзо Махмудович

Доцент Бухарского государственного университета, д.ф.ф.ф. (PhD)

mirzobek.tursunov81@gmail.com

По рецензии З.И.Расулова, профессор,

зав. кафедры лингвистика английского языка, д.ф.н. (DSc)

MEDIAMATNING LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK HAMDA MADANIYATLARARO MULOQOTDAGI O'RNI TAHLILI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.00000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy medialingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblangan mediamatnning lingvomadaniyatshunoslik hamda madaniyatlararo muloqot kabi sohalaridagi o'rni, ahamiyati va qo'llanilish tamoyillari tahlilga tortiladi. Amaliy misollar yordamida keltirib o'tilgan nazariy omillar asoslab beriladi. Mediamatn mazmuni va tarkibida madaniy unsurlarning mavjudligi u yoki bu mediaxabarning asosiy ko'rinishini belgilab berishi ishda isbotlangan.

Kalit so'zlar: assosiativ munosabatlar, madaniy-spesifik birlik, realiyalar, konnotativ kontekst, konseptuallik.

ANALYSIS OF THE ROLE OF MEDIA TEXT IN LINGUISTICS AND INTERCULTURAL COMMUNICATION

ABSTRACT

The article focuses on the role, importance and principles of the usages of media text, which is one of the main concepts of modern media linguistics, besides, relation of mediatext with linguo-culture and intercultural communication are analyzed. Theoretical factors are justified with the help of practical examples. It has been proven that the presence of cultural elements in the content and structure of the media text determines the main view of this or that media message.

Key words: associative relations, cultural-specific unity, realities, connotative context, conceptuality.

АНАЛИЗ РОЛИ МЕДИАТЕКСТА В ЛИНГВИСТИКЕ И МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются роль, значение и принципы использования медиатекста, который является одним из основных понятий современной медиалингвистики, важность медиатекста в таких областях, как лингвокультурология и межкультурная коммуникация также обсуждается. Теоретические факторы обоснованы с помощью практических примеров. Доказано, что наличие культурных элементов в содержании и структуре медиатекста определяет основной облик того или иного медиасообщения.

Ключевые слова: ассоциативные отношения, культурно-специфическое единство, реалии, коннотативный контекст, концептуальность.

Kirish. Medialingvistik tadqiqotlardagi eng muhim, dolzarb yo'nalishlardan biri mediamatnlarni lingvomadaniyatshunoslik hamda madaniyatlararo mulqot nuqtai-nazaridan o'rganish hisoblanadi, bu zamonaviy medianutqdagi madaniy ahamiyatga ega komponentlarning o'ziga xos xarakterli xususiyatlarini o'rganishga shuningdek, lingvomadaniy globallashuv sharoitlarida tillar va madaniyatlar o'rtasidagi munosabatlarning murakkab mexanizmlarini ochib berishga imkon beradi. Ma'lumki, so'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat o'rtasidagi aloqadorlik, munosabat kabi masalalarga katta e'tibor qaratilmoqda hamda ko'plab ilmiy izlanishlar mazkur masalalarga bag'ishlangan. Bu masaladagi qiziqishning ortishiga sabab sifatida global informatsion jamiyat sharoitlarida jahonning madaniy olamida sodir bo'lgan va bo'layotgan bir qator o'zgarishlarni keltirib o'tish mumkin.

Asosiy qism. Jahon informatsion muhitining globallashuvi, Sharq va G'arb o'rtasidagi informatsion to'siqlarning to'liq bo'lmasida olib tashlanishi, mamlakatlararo aloqalarning keskin ortishi – bularning barchasi til funksiyalarini madaniyat bilan bog'lagan holda o'rganish zaruriyatini yetakchi lisoniy dolzarb masalalardan biriga aylantirdi.

Lingvomadaniyatshunoslik fanining predmeti sifatida madaniyat va tilning turli funksional qo'llanishlarida ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik hamda o'zaro munosabat belgilab olingan. Matnni madaniyatni namoyon etuvchi verbal-belgili ifoda vositasi sifatida baholay ekanmiz, mediamatnlarda madaniy ahamiyatga ega axborotni yetkazish yo'llarini chuqur o'rganish uchun lingvomadaniy yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq.

To'liqigicha matnda eksplisit hamda implicit tarzda mavjud bo'lgan madaniyatga aloqador axborotni belgilash uchun ko'plab terminologik birliklarda "kontekst" so'zi qo'llaniladi: sotsiokulturologik kontekst, ekstralingvistik kontekst, vertikal kontekst. Medialingvistika doirasida esa "kulturologik kontekst" (ya'ni, madaniyatga aloqador, madaniyatga oid) termini faol tarzda qo'llaniladi. Shunday qilib, kulturologik kontekst barcha madaniy ahamiyatga ega ma'lumotlardan iborat matnlarda strukturalashgan deb baholanishi mumkin.

Kulturologik kontekst konsepsiyasi quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi:

- 1) denotativ, madaniy ahamiyatga ega ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri, eksplisit shaklda ifodalansa;
- 2) konnotativ, madaniyatga oid ma'lumotlar ekspressiv-emotsional-baholovchi konnotatsiyalarda mavjud bo'lsa;
- 3) assotsiativ, madaniyatga oid komponentlar leksik va frazeologik birliklar bilan assosiativ munosabatlarda namoyon bo'lsa;
- 4) metaforik, u yoki bu til guruhiga tegishli metafora, o'xshatish, obrazlarda namoyon etilgan madaniyatga oid ma'lumotlarni birlashtirsa.

Denotativ kulturologik kontekst u yoki bu madaniyatga tegishli bo'lgan realiyalarni ifodalovchi so'z va so'z birikmalarda namoyon bo'ladi. Bularga atoqli otlarni misol tariqasida kiritamiz, masalan, mashhur insonlarning ismi, siyosiy partiyalarning nomlari, ko'cha, tarixiy joylar, arxitektura obidalar va hokazo nomlar denotativ kulturologik kontekstual birliklar sifatida qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, u yoki bu madaniy-spesifik birlik yoki artefaktning ifodalovchi leksik birliklarni yuqoridagi kontekstga misol sifatida taqdim etamiz: backbencher, fish-and-

chips, kilt, car-boot sale (ingliz madaniyatiga xos birliklarga misollar). O'zbek milliy madaniyatiga xos denotativ kulturologik kontekstual birliklarga misol tariqasida choyxona palov, xonatlas, Registon kabilarni keltirishimiz mumkin. Denotativ darajadagi madaniy-spesifik birliklarning ma'nolari odatda lingvomamlakatsunoslik lug'atlarida beriladi.

Bunday madaniyatga aloqador birliklarning ko'p sonlarda mavjudligi ommaviy axborot vositalari matnlarining o'ziga xos xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ular u yoki bu jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga aloqador bo'lgan birliklar sanaladi. O'z davlatida hamda xorijda sodir bo'layotgan voqealar tasnifi, tahlillar, izohlar, features guruhidagi materiallarda hodisalarning batafsil in'ikosi, reklamalar – bular o'z-o'zidan, tabiiy ravishda ma'lum bir madaniy asos, poydevorda shakllantiriladi va u yoki bu til jamiyatidagi realiyalar hamda konkret hayot faktlarini namoyon etishadi.

Ko'rib chiqilayotgan mediamatnlarning barcha to'rttala kontekst turlari o'z tarkibida u yoki bu xalq, madaniyatga tegishli bo'lgan ko'plab unsurlarni mujassamlashtirgan so'z va so'z birikmalarga ega. Ulardan ayrimlarini anglab olish oson kechsa, ayrimlari bilan ma'lum bir darajada murakkabliklar ko'zga tashlanishi mumkin. Masalan, jahon matbuotida Buyuk Britaniyada sodir bo'layotgan ma'lum bir voqea-hodisalar haqida ko'p to'xtalib o'tilganda ular oddiy birliklar kabi jamiyat a'zolari ongiga singib ketgan bo'lishadi, misol uchun, Tories, Labour, Westminster, Downing Street 10, Brexit kabi atoqli otlar butun dunyo matbuotida bot-bot muhokama qilinadi va ularni tushinishda muammo yuzaga kelmaydi. Biroq asosan inglizlarning o'z matbuotlarida muhokama qilinadigan mediamatnlardagi ba'zi birliklarni anglashda muammolar yuzaga kelishi mumkin, misol uchun, Shadow minister, frontbenchspokesman, backbencher, Privy Purse va hokazo.

Konnotativ kontekst darajasida esa madaniyatga oid komponentlar so'zning denotativ emas balki konnotativ ma'nosida mavjud bo'ladi. Konnotativ darajadagi madaniyatga oid birliklar odatda barcha madaniyatlar uchun xos bo'lgan predmet va tushunchalarni ifodalaydi va shu sababdan ham lingvomamlakatshunoslik lug'atlariga kiritilmaydi. Ba'zi hollarda tarjima jarayonida madaniyatga oid konnotatsiyalarning semantik jihatdan boshqa ma'noni anglatish kabi holatlar ham uchray turishi mumkin. Shu sababdan ham, har qanday tushuncha u yoki bu madaniyatga moslab, tarjima qilinishi ma'qul.

Kulturologik kontekstning assotsiativ darajasi esa u yoki bu til guruhlaridagi realiyalarni ifoda etadigan turg'un assotsiativ aloqalarga ega leksik birliklarda namoyon bo'ladi. Ma'lum bir uslub, obraz va hokazolar bilan assotsialanadigan madaniyatga oid birliklar features guruhiga tegishli informatsion-analitik matnlarda baho berish, tasvirlab berish, taqqoslashda qo'llaniladi. Misol uchun, BBC (British Broadcasting Corporation) mediakompaniyasi britaniyaliklar orasida doimo o'zining o'ta professional ish uslubi bilan hurmat qozongan, uning dasturlari, bahs-munozara shoulari doimo yuqori reytinglarga ega yoki Buyuk Britaniyaning estrada musiqa madaniyatida "Beatles" musiqiy guruhi o'zining shonli shuhrati bilan 80-90 yillarda butun dunyoga mashhur bo'lgan, hozirgi kunda u Britaniyada "o'ta mashhur bo'lish" tushunchasi bilan assotsialanadi. Shu o'rinda O'rta asrlarda Angliyada Uyg'onish davrida yashab ijod etgan Uilyam Shekspir qalamiga mansub shoh asarlardan biri hisoblanadigan "Hamlet" dan olingan "To be or not to be" jumlasini oradan shuncha asrlar o'tgan bo'lsada, inglizlar madaniyatidan, lug'at boyligidan o'chgan emas, balki u boshqa tillarda ham, boshqa madaniyatlarda ham qo'llanila boshlandi. Yoki o'zbek madaniyatida "otalar so'zi" aqlning ko'zi" (hozirda "otalar so'zi" shaklida nomlanadi) ko'rsatuvi hamisha gumanizmga xos yaxshilik, ezgulik kabi tushunchalarni o'zida aks ettuvchi, milliy madaniyatimizdagi urf-odat, qadriyatlarini saqlashga undovchi, axloq-odob, hurmat-izzat, o'zbekona milliy g'oyalarni targ'ib qiluvchi, ularni e'zozlovchi, ota-onaga hurmatda bo'lishni, opa-singillar, aka-ukalar o'rtasidagi oqibat yo'qolmasligini ta'kidlovchi, to'g'ri yo'lda yurish kerakligini, har qanday qilingan yomonlik insonning o'ziga qaytishini eslatuvchi, kishilarga kerakli tarbiyaviy maslahatlar beruvchi, jamiyatdagi illatlarni ochib tashlovchi, ularni qoralovchi, vijdon, insof kabi insoniy his-tuyg'ularni uyg'otuvchi, umuman insonlarni tarbiyalovchi, to'g'ri yo'lga boshlovchi axloqiy institut sifatida assotsialanadi. Shu bilan birga o'zbek milliy madaniyatida o'ziga xos o'rin egallab ulgurgan "Yalla" musiqiy estrada guruhining jamiyatimizda tutgan o'rni haqida va uning assotsiativ ma'nolari haqida to'xtalib o'tsak. "Yalla" guruhi har doim o'zbek milliy madaniyatiga xos folklor, milliy qo'shiq,

lapharlarni zamonaviy ko'rinishga keltirib, milliylik hamda zamonaviylik kabi xususiyatlarni uyg'unlashtirgan institut sifatida assotsialanadi. Yoki o'zbek adabiyotiga tegishli bo'lgan mashhur asarlardan olingan sitatalarning xalq orasiga kirib borishi va faol qo'llanilishiga misol tariqasida buyuk o'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor qalamiga mansub "O'tgan kunlar" asarida ishlatilgan "Siz o'shamu?" iborasining hozirgi davrda ham, oradan bir necha yillar o'tsa ham xalq madaniyati birligi sifatida yashab kelayotganligini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Faqat o'zbek madaniyati, urf-odatlar haqida tushunchasi bor insongina ushbu iboraning ma'nosini tushunadi va to'g'ri kontekstda qo'llay oladi. Odatda turg'un assotsiativ birliklar u yoki bu madaniyatga xos bo'lgan asosiy tushunchalarni ifoda etib, uzoq yillar davomida millatning umumiy g'oyasida shakllangan o'zini-o'zi anglashning milliy xususiyatlarini namoyon etadi.

Kulturologik kontekstning keyingi darajasi metaforik hisoblanib, u yoki bu milliy madaniyatning ajralmas qismiga aylangan, matnlardan olingan madaniyatga tegishli birliklarni o'zaro birlashtiradi. Milliy madaniyatning matnli ifodasi bo'lgan barcha birliklar – badiiy asar, filmlardan olingan parchalar (sitatalar), mashhur insonlarning bildirgan fikrlari (gaplari), iboralar, alyuziyalar, maqollar, matallar, mashhur qo'shiqlardan olingan so'zlar, reklamalardan olingan parchalar va boshqalarning hammasi metaforik kontekstual unsurlar hisoblanadi. Yangiliklarni hisobga olmagan boshqa barcha mediamatnlar shu turdagi birliklardan faol tarzda foydalanishadi va bu bilan xalqqa, jamiyatga, ularning madaniyatiga yanada yaqinroq ruhda axborotlarni yetkazishadi. Misol uchun, ingliz madaniyatida "Elementary, my dear Watson" ("Sherlok Holms sarguzashtlari" detektiv filmidan olingan mashhur sitata) sitatasi hali-hanuz faol birlik sifatida qo'llanib kelinmoqda, tabiiyki, o'zbek madaniyatida ham bunday iboralar juda ham ko'p, "Tinib-tinchimagan odamlar-e, nimalarni o'ylab topishmaydi-ya" (Mahallada duv-duv gap kinofilmida O'zbekiston xalq artisti Lutfixon Sarimsoqova yaratgan obrazning mashhur gapi) sitatasi oradan nechi yil o'tsa ham xalq tomonidan faol tarzda qo'llanilib kelinmoqda.

Metaforik kulturologik kontekstda qo'llaniladigan madaniy leksik birliklar juda ham tez fursatda axborotning asosiy mazmunini, g'oyasini adresantga yetkazib bera olish qudratiga ega. U shunchalik gazeta o'quvchisining e'tiborini o'ziga tortadiki, bir umr esda qolishi mumkin. Mediamatnni birgina metaforik madaniy leksik birlik bilan parafraza qilinishi asosan gazeta diskursida sarlavhalarni nomlashda ishlatiladi. Denotativ kontekstni tushunish uchun tarixiy hamda ijtimoiy xarakterdagi ma'lumotlarga ega bo'lishning o'zi yetarli bo'lsa, metaforik kontekstdagi axborotni anglash uchun u yoki bu xalq madaniyati, ma'rifati, tarixiga oid maxsus bilimlar ko'nikmasiga ega bo'lish talab etiladi. Xalq yoki jamiyat to'g'risidagi maxsus bilimlar, ma'lumotlarni bilishgina ular haqidagi kinoyali, o'xshatishga oid murakkab madaniyatga oid shakl va ma'nolarni tushunishning imkoni bo'ladi. Bejizga chet tili o'rganuvchilariga til grammatikasi, fonetikasi, leksikasiga oid qoida va normalar bilan birga adabiyot namunalaridan o'qish vazifasi berilmaydi. Shu bilan birga, til o'rganuvchilari til ishlatiladigan jamiyatning o'ziga xos madaniy, axloqiy, ijtimoiy, tarixiy o'ziga xos xarakterli xususiyatlari haqida ham yetarli ma'lumotlar olishlari talab etiladi.

Bugungi kunda dunyoda hech bir til yo'qki, kelib chiqishi ingliz tilida bo'lgan biznes, menejment, marketing, broker, diler, sponsor, spiker, treyder, di-djey, drayv, shoumen, prays-list, fayl va hokazo leksik birliklarni o'z ona tilida qo'llamasa, jumladan, o'zbek tili ham bu jarayonni boshidan o'tkazmoqda. Albatta, bu so'zlarning hammasi ham aynan mediadiskursdan yangi tillarga o'tib oldi degan fikrni bildirishdan yiroqdamiz, lekin baribir mediadiskursning tilga, uning tarkibiga bo'lgan ta'siri juda ulkanligicha qolmoqda. Konseptuallik nuqtai-nazaridan shuni alohida qayd etish kerakki, leksik birliklarning bir tildan boshqa tilga o'zlashishi bir xalq madaniyatida ma'lum bir soha boshqalaridan ko'ra ko'proq rivojlangan bo'lsa bu jarayon sodir bo'ladi. Ya'ni, o'sha jadallik bilan oldinga siljiyotgan sohadan ko'proq so'zlar boshqa madaniyatlarga kirib boradi, misol uchun o'ziga xos yuqori moda, mazali, nozik didli gastronomiya, hashamatli hayot obrazi predmetlarini ifodalashda Britaniya matbuoti ko'proq fransuzcha birliklarni qo'llashga odatlangan: haute couture, soiree, clientele, vin de table va hokazolar, bu holat fransuz jamiyatiga xos madaniyatning hamda unda qo'llaniladigan leksik birliklarning boshqa madaniyatlarga mediadiskurs orqali o'tib borishiga yorqin misoldir, bunga sabab esa azaldan Fransiyada moda, hashamatli hayot va milliy oshxona

madaniyatning markaziy unsurlari hamda jamiyatning ustunlari bo'lib kelgan. O'z navbatida ingliz tilidan boshqa madaniyatlar va tillarga o'zlashayotgan so'zlar Angliyada rivojlangan savdo-sotiq, sport, kompyuter texnologiyalari, pop-musika, yoshlar madaniyati kabi sohalarga tegishli ekanligini qo'shimcha qilishimiz mumkin.

Madaniyatlararo muloqotga aloqador medialingvistik tadqiqotlarning yana bir dolzarb yo'nalishlaridan biri bu boshqa davlat hamda xalqlar hayotlariga oid obrazlar hamda stereotiplarini yaratishning lingvomediali texnologiyalarini o'rganish hisoblanadi. Ya'ni, bir davlatning yoki xalqning boshqa davlat yoki xalqlar haqida tarixan shakllangan turli stereotiplarni yaratish masalasi haqida so'z boryapti. Misol uchun, 1960-70 yillar davridagi O'zbekiston obrazi chet el davlatlari uchun paxta yetishtirishga ixtisoslashgan agrar davlat stereotipi asosida shakllangan bo'lsa, hozirda bu obraz to'laligicha o'zgargan bo'lib, shiddat bilan har sohada rivojlanayotgan og'ir va yengil sanoati iqtisodiyotning salmoqli ulushini tashkil etadigan barqaror mamlakat sifatida baholanadi. Albatta, bu obrazlar mediadiskursda verbal hamda nonverbal elementlar yordamida shakllantiriladi.

Xulosa. Jahon informatsion olamining yanada jadallik bilan kengayib borishi, globallashuvi sodir bo'layotgan hozirgi davrda mediamatnlarni madaniyat bilan aloqadorligi va bir-biriga o'zaro ta'sir etishi nuqtai-nazaridan o'rganish, ya'ni madaniyatlararo muloqot kontekstida tadqiq qilish zamonaviy medialingvistika oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda OAVning globallashuviga sabablardan biri sifatida ingliz tilining jahon tili miqyosida tobora rivojlanib borayotganligini ko'rsatib o'tishimiz mumkin, zero bugungi kunda ko'plab mediadiskurslardagi yangiliklar oqimi asosan ingliz tilida taqdim etilmoqda. Bu jarayon esa o'z-o'zidan ingliz tilidan boshqa tillar lug'atiga juda ham ko'plab leksik birliklarning kirib borishiga sabab bo'lmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Phillipson, R. (1992). *Linguistic imperialism*. Oxford University Press.
2. Воробьев В. В. Лингвокультурология. Теория и методы М., 1997, с.36.
3. Добросклонская Т. Г. Вопросы изучения медиатекстов. М., URSS, 2005.
4. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, с.507.
5. Рязанцева Т. И. Гипертекст и электронная коммуникация. М., ЛКИ, 2010
6. Rasulov, Z. (2023). Принцип когнитивной экономии как важный фактор в передаче информации. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 42, 42.
7. Rasulov, Z. (2022). О дискурсивном анализе в современной лингвистике. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 25(25).
8. Tursunov, M. M. "Peculiar Features of Metaphorical Phraseological Units." *International Journal on Integrated Education*, vol. 2, no. 6, 2019, pp. 119-127, doi:10.31149/ijie.v2i6.131.
9. Tursunov Mirzo Makhmudovich, & Akhmedova Gulmira Okhunjonovna. (2022). Analysis of Conceptual Metaphors Used in British Politicians' Speeches. *Eurasian Research Bulletin*, 7, 43–48. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1015>
10. Makhmudovich, T. M. ., & O'rinbekovna, U. M. . (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. *ИЖТИМОЙИ ФАНЛАРДА ИННОВАЦИЯ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 46–49. Retrieved from <http://sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1154>
11. Erkinovna, Y. F. (2021). Politeness and culture. In *International conference on multidisciplinary research and innovative technologies* (Vol. 2, pp. 82-86).
12. YULDASHEVA, F. (2022). Expressions Of Linguistic Politeness. *Центр Научных Публикаций* (Buxdu. Uz), 16(16).
13. Erkinovna, Y. F. (2022, January). Politeness strategies. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 80-82).



ISSN 2181-9297

Doi Journal 10.26739/2181-9297

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 4 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 4

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Tel: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000